

VIRTUAL OLAM VA UNDA PROFILAKTIKA SAMARADORLIGI

Maxammatov Otabek

*O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika
instituti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. *Har bir davrning turli yutuqli va illatli omillarini insoniyat anglaydi va bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Jumladan, har bir vaqt va zamon kesimida turli nomlar bilan tarqalgan ijobiylar salbiy xususiyatlar xuddi kasalliklar singari yoki kasallik tarzida inson organizmini shikastlashi bilan iz qoldirsa, ayrimlari esa inson ongini chulg'ab oluvchi, o'zining qutilib bo'lmas ma'naviy asoratlari bilan nom qoldiradi. Biror kishi shaxsiyati yoki shaxsiy hayoti va boshqa omillar yuzasidan virtual olamda tarqatilayotgan ma'lumotlar ham shular jumlasidandir.*

Kalit so'zlar. *virtual olam, globallashuv, profilaktika, huquqiy ong, madaniyat, g'oyaviy ozuqa, sun'iy intellekt.*

Kirish. Aynan bugun virtual olam globallashuv va uning ta'sir maydoni quroliga aylanib ulgurdi. Xuddi shu singari unsurlarni istisno etmagan holda, insonlar ongini zararlash hamda turmush tarzini o'zgartirish jixatlari bilan virtual olamning ahamiyati ortib bormoqda. Bu axborot makonida inson ongini shikastlantiruvchi, uni hattoki bir umrga shuning ta'siri ostiga solib qo'yuvchi misollar bir talay sanaladi. Tarixiy davrlarga nazar tashlanadigan bo'lsa insonlar hadiksirashi kerak bo'lgan bir qancha misollar mavjud bo'lgan. Ular esa ma'lum muddatdan keyin, kutilayotgan vaqt davomida insonni turli ko'rinishlarda zararlashi yoki shikastlantirishi kuchiga va boshqa ta'sirlarga ega sanalgan. Virtual olamdagи axborotlar ko'lamdorligi esa joy tanlamas va yosh tanlamas, til tanlamas, millat va elat tanlamas darajaga yetib ulgurdi. Aynan virtual olamning turli ijtimoiy tarmoqlari orqali tarqatilayotgan ma'lumotlar va ular ta'siri doirasida sodir etilayotgan buzg'unchiliklar, taqlidchilik ko'rinishlari, jinoyatlar kabi bir qator omillar bilan qisqa fursatlarda yuzaga kelmoqda. Bu ta'sir maydonning eng faol ishtirokchilari albatta yoshlari qatlami sanalmoqda.

Asosiy qism: Ijtimoiy tadqiqod natijalari shuni ko'rsatadiki bugun aksariyat yoshlarda qaysidir zarur deb hisoblanadigan adabiyotlar yoki boshqa asbob va jihozlarga qiziqish emas, balki aynan yoshlarning o'y fikri virtual olam bilan bog'lovchi jixoz ya'ni uyali aloqa vositasi bilan yashash, unga intilish va erishgach esa virtual olam bilan fikrlash, tillashish sanalib qolmoqda. Yoshlar muomala madaniyatida uyali aloqa vositasi modeliga qarab yondashuvlar turmush tarzimizga kirib kelmoqda.

Zamonaviy virtual olamlar, xususan, ko'p foydalanuvchili onlayn muhitlar, asosan, ushbu tadqiqotdan mustaqil ravishda paydo bo'ldi, buning o'rniga o'yin sanoati ta'minlangan, lekin shunga o'xshash ilhomga asoslangan.[14] Klassik sensorli taqlid

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qiluvchi virtual haqiqat immersiv muhitni boshdan kechirish uchun idrok tizimini aldashga asoslangan bo‘lsa-da, virtual olamlar odatda aqliy va hissiy jihatdan jozibali tarkibga tayanadi, bu esa immersiv tajribani keltirib chiqaradi.

Virtual olam insonlarni virtual odamga aylantirmoqda. Kaysiki ma’noda insonlar faqatgina demografik ko‘payish, ota-onalar va farzand mehri nuqtaiy nazaridangina birga yashash turmush tarzini tutib turgan bo‘lmasa, boshqa aksar holatlarda virtual olamning odami sifatida butun dunyo fuqarosiga aylanishga intilmoqda. Vatanparvarlik va elparvarlik kabi oliy tuyg‘ular go‘yoki faqatgina davlatga va davlat xizmatchilariga tegishlidek qarash unsurlari ko‘zga tashlanmoqda. Hattoki insoniy tuyg‘ular sanalgan, uni birorta jihoz va texnologiyadan topib bo‘lmas o‘zaro mehr va oqibat kabi fazilatlar ham virtual ko‘rinishga ko‘chib bormoqda. Virtual tarmoqlar tonidan yo‘lga qo‘yilgan turli ko‘rinishdagi hattoki yoshlarni o‘limga yuzlantiruvchi o‘yin va ko‘rsatmalar, moddiy mablag‘ tikilishini talab qiluvchi tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar, firibgarlikni o‘zida jamlagan ko‘p sonli dasturlar insonlarni hattoki davlat dasturiy vositalarini ham zararlamasdan o‘tgani yo‘q. Bular natijasida ayrim aholi qatlamlari orasida o‘zini-o‘zi jismonan yo‘q qilishgacha bo‘lgan yo‘llarni tutish holatlari ham kuzatilmoqda.

Majoziy ma’noda aytganda XXI asr yutug‘i, agar to‘g‘ri foydalanmasak illati (vabosi) bu aynan virtual tarmoqlar sifatida ko‘zga tashlanmoqda. Albatta biz ko‘rib o‘tayotgan jixatlarda virtual olamning salbiy omillari xususida ko‘proq to‘xtalib o‘tmoqdamiz. Boisi virtual tarmoqlarning yaxshi jixatlarini qachonki his qilamiz, qachonki yomon jixatidan tiyilishni to‘liq o‘zlashtirsakgina anglay olamiz.

Har ikkala holatda ham ya’ni virtual tarmoqlarning ijobiy va salbiy illatlarida ham vaqt atalmish bebaho ne’matimizni yo‘qotishimizni hech kim inkor etmasligini inobatga oлган holda undan samarali va me’yorida foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishimiz zarurat. Bularni yosh avlod vakillariga uqtirishning esa eng samarali usullaridan biri bu tizimli profilaktika targ‘ibot usullaridan keng foydalanishdir. Agar kuzatadigan bo‘lsak barcha salbiy va hatto Konstitutsion tizimgacha qarshi qaratilgan onlayn o‘quv mashg‘ulotlar ham aynan ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilmoqda va singdirilmoqda. Masalaning eng nozik tomoni ma’lumotlarni virtual tarmoqlarga joylab respublikamiz hududidan tashqarida turib qo‘llayotgan shaxslar, guruxlar deyarli buning hech qanaqasiga jabrlanuvchisiga aylanmasligidir. Shu o‘rinda ayrim fikr va mulohazalar, takliflar yuzaga keladi.

Bizda davlat kesimida virtual tarmoqlar sababli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan omillarga qarshi huquqiy ta’sir choralarini o‘z vaqtida ishlab chiqmoqdamiz. Ya’ni ayrim taqiqlangan saytlarga kirmaslik, ularga kirgan holatlarda ushbu shaxslarga nisbatan qonuniy ta’sir choralarini mavjudligi yuzasidan. Respublikamiz norma ijodkorlari tomonidan taqiqlangan deb topish mexanizmi ishlab chiqilgan, lekin virtual tarmoqlarda ya’ni o‘z hududimizda ushbu saytlarning aylanishini cheklashning imkon, foizi juda ham cheklangan.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Biz tomonimizdan taqiqlangan deb topilgan saytlardagi sahifalarga, ma'lumotlarni joylovchi kuchlar tomonidan, bizning tarqatayotgan ma'lumotlarimiz taqiqlangan, Konstitutsion tizimlarga qarshi qaratilgan degan iborani hech bir ma'lumotga qo'ymaydi va tan ham olishni istashmaydi. Ana endi virtual savodxonlikka va madaniyatga ega bo'limgan foydalanuvchilarda joylangan ekan ko'rish, kuzatish mumkin ekan degan tasavvur uyg'onadi. Buning natijasida his-hayajon berilib xuddiki shu ma'lumot u uchun jamiyat shifokori sifatida gavdalanim qo'llab-quvvatlash tugmasini anglab-anglamay bosadi. Aksariyat hollarda u qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishdan mutlaqo bexabarlikda sodir etiladi. Chunki aholi vakillarida davlat degan institut yo'l ochib bergen, shuning uchun bemalol tarmoqlar, sahifalar faoliyat olib bormoqda degan tushuncha bor. Ular tushunmaydiki bularni ya'ni virtual tarmoqlarning zararli deb topilgan sahifalarini jilovlash to'liq imkonni mavjud emasligini.

Masalaning og'riqli tomoni inobatga olishinishi zarurat ya'ni kim sodir etmoqda? Shu hududda istiqomat qiluvchi fuqarolarimiz. Kimlar javobgarlikga duchor bo'lmoqda? Ular yuqoridagi kabi omillardan tiyilishi, bu kabi omillar huquqbazarlik sanalishi yuzasidan qayerda ta'lim olishgan degan savol yoki kim ularga tushuntirgan degan savol o'rta tashlanishi kerak. Masalaning yechimini ota-onalardan, jamiyatdan izlashimiz biroz noo'rin sanaladi. Boyisi o'rta avlod vakillari ham qisman virtual olam bo'yicha savodxonlikga ega. Aksariyat holatlarda tushunishmaydi, tushunishni istashsa ham. Bu joyda davlat institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar o'rniga extiyoj seziladi.

Har bir fuqaromiz dastlab mablag', kollej, texnikom, litsey va ma'lum qismi oliy ta'lim muassasalarida saboq oladi. Ushbu muassasalarda virtual olam va uning huquqiy oqibatlari singari yengil mavzular bilan boyitilgan undan foydalanish asoslari va oqibatlari bilan tanishtirib boruvchi fanni joriy etish mavridi yetib kelmadimikan. To'g'ri biz bir yondoshuvni mantiqan qo'llab quvvatlab o'rganganmiz, bu shunday bo'lishi ham kerak. Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod etishga asos bo'lmasligi. Lekin yuqoridagilardan kelib chiqqan tarzda virtual olam borasidagi choralar qo'llanilishida biroz mushoxada asosida kirib borilishini hozirgi vaziyatimiz taqazo etmoqda deb hisoblaymiz.

Lekin qabul qilinayotgan qonunlarni o'zlashtirishga va undan kunlik xabardor bo'lib borishga yosh avlod vakillarining intilishini, katta avlod vakillarining esa vaqtini tushunish darajasini ham yetarli deb baholab bo'lmaydi. Bu fikr ham o'z-o'zidan majburiy ta'limda virtual savodxonlikga bo'lgan chaqiruvni anglatadi. Rasmiy sahifalarimizda amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, ayrim huquqiy imtiyoz va cheklar ma'lum qilib boriladi. Lekin u sahifalarni kuzatuvchilar auditoriyasi asosan oq-qorani anglagan, ijtimoiy siyosiy qarashlarga, huquqiy ong va madaniyatga, virtual tarmoqlar bo'yicha yetarli tushunchaga ega bo'lgan qatlama sanaladi.

Ayrim sahifalarga shunchalar ustamonlik bilan ma'lumotlar va ushbu ma'lumotni qo'llab quvvatlov munosabat tugmachasi joylanganki beixtiyor inson barmoqlari tegib ketish extimollari juda ham yuqori. Kuzatuvchi ushbu ma'lumotga noxosdan qo'li tegib

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ketishi va uning qo'llab quvvatlovchisiga aylanib qolishi, tarqatuvchisi sifatida baholanishi juda tezda sodir bo'ladi. Bu esa o'z navbatida huquqiy ta'sir chorasi ko'rilihini keltirib chiqaradi. Shunday ekan zamon talabi sifatida, zamonamiz fani sifatida, yuqorida nazarda tutilib taklifi berib o'tilayotgan fanlar joriy etilishiga murojaat etishimiz zaruratdir. Bu esa ma'lum ma'noda javobgarliklar kamayishiga olib keladi.

Inson dunyoda yashashdan maqsadi nima ekanligini bilmasa, u har tomondan yutqazgan hisoblanadi. Unga jon berilgan ekan, u buni ne'mat bilib, o'z oldiga oliv maqsadlar qo'yib borishi kerak. Har kuni yaxshi amallar qilib, atrofdagilarga yordam berishga harakat qilishi lozim. Inson birgina maqsad qo'yib olib, shuni amalga oshirish ilinjida harakat qilib borsa, ketayotgan vaqt ham taqsimlangan bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda, radio, televideniyada umuman bugun reklama ko'lamdorligi juda keng tarzda olib boriladi. Xuddi ana shunday reklama va sahifalarni qonunlarning targ'iboti borasidagi mutasaddi bo'lgan tegishli vazirlik va idoralar kesimida, e'fir vaqt ajratilgan holda targ'iboti, ko'chma ma'noda aytganimizda islohotlar reklamasi bilan ham shug'illanish zarurat. Shuningdek, qabul qilinayotgan me'yorlar hamda virtual tarmoqlarning salbiy illatlaridan himoyalanish yuzasidan turli qisqa metrajli ko'rsatuvalar va roliklarni ijtimoiy tarmoqlarda aylanishini kuchaytirish zarurat sanaladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida, virtual tarmoqlarning yutuqli va ijobiy xususiyatlarini inkor etmagan holda, ulardan ijobiy va g'oyaviy ozuqa izlash yo'llarini o'zida aks ettingan loyihalarini keng qo'llab-quvvatlash kerak. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalangan holda sun'iy intellekti rivojlantirishga yoshlarni yanada keng jalb etish, har bir kesimda tegishli sun'iy intellektga asoslangan konstrukturlik to'garaklarini, maktablarini yo'lga qo'yish va yoshlarni tizimli rag'batlantirish usullarini ham o'ylab ko'riliши, kelajakda juda katta samaradorlikni barcha tarmoqlar kesimida yuzaga keltiradi. Bu ham virtual olamning salbiy xususiyatlaridan profilaktika tarzida maydonga chiqadi.

Keltirib chiqaruvchi sababning oldini olishimiz va samaradorligimiz yuqoriligiga erishamiz. Yuqorida sanab o'tayotgan omillarning barchasi XXI asr inson intellekti maxsuli sifatida kirib keldi. Endilikda undan qanday himoyalanish, yoki undan qanday unimli foydalanish, zarurat bo'lganda unga qarshi tura oladigan vositalarning eng maqbul yechimi borasida hammamiz bosh qotirmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev, S. M. (2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent-2021, 4.
3. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. Toshkent: O'zbekiston-2013.
4. Maxamatov O.S Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarda yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi masalalari. Monografiya, Samarqand-2024.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

5. Saidalievich, M. O., & Ziyadullevich, I. L. Assessment of the Impact of Youth Unemployment on Social Development. JournalNX, 292-295.
6. Maxammatov, O. S., & Ibragimov, L. Z. (2021). Evaluation of the impact of youth unemployment on social development. In European Scientific Conference (pp. 252-254).
6. Ибрагимов, Л. З. (2021). Жануби-гарбий Ўзбекистоннинг меҳнат бозоридаги вазият. географического общества узбекистана, 56.
7. Ибрагимов, Л. З., Мусаев, Б. М., & қизи Усманхонова, Д. Ф. (2021). Ўзбекистоннинг бандлик ва меҳнат бозорига демография омилининг таъсирини баҳолашнинг баъзи жиҳатлари. *Science and Education*, 2(7), 367-376.
8. Usmanov, M., Ibragimov, L., & Boratova, G. (2021). Tourism cluster development as an important factor in creating new jobs. *Экономика и социум*, (10 (89)), 321-328.
9. Ibragimov, L. Z., Akbarov, A. N., & Ubaydullayev, D. K. (2021). Theoretical issues of employment of population and its geographical study. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 76-83.
10. Ziyadullayevich, I. L., Murodovich, M. B., & Sayidovch, M. F. (2021). Employment Of Population And Its Geographical Study. *JournalNX*, 163-167.
11. Ziyadullayevich, I. L., Og'Li, A. A. N., & Og'Li, U. D. K. (2021). Employment of population and factors which influences it. *Евразийский Союз Ученых*, (1-5 (82)), 4-7.
12. Ibragimov, L. Z. (2016). State policy in supporting an employment of population in Uzbekistan. *Lucrările Seminarului Geografic "Dimitrie Cantemir"*, 41, 105-110.
13. Ибрагимов, Л. З. (2015). Аналитические методы регрессии–корреляции в исследование семейного предпринимательства. *Ответственный редактор*, 39.
14. Ibragimov, L. Z., & Davranova, M. A. The influence of demographic factors to labor market in Samarkand region. Международного научно-исследовательского конкурса. Петрозаводск, 2019.
15. Ziyadullayevich, I. L., & Qizi, U. D. F. (2021). Some issues of studying the impact of demographic factor on employment and labor market. *European Scholar Journal*, 2(7), 47-50.
16. Тожиева, З., Жалолиддинов, Н., & Ибрагимов, Л. (2021). Ўзбекистон Республикаси худуд демографик сифими имконияти ва уни баҳолаш. Наука и Общество, 32.

